

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**MUTAXASSISLIK FANLARI BO‘YICHA MAGISTRATURAGA
KIRISH SINOVLARI DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

**5A230102 –Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi uchun**

Annotatsiya

Dastur 5A230102– Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishining 2017/2018-o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

Abdulloyev A.J – BuxDU “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri,
i.f.f.d (PhD).

Yavmutov D.Sh – BuxDU “Iqtisodiyot” kafedrası
dotsent., i.f.n.

Toirova M.M. – BuxDU “Iqtisodiyot” kafedrası dotsent.,
i.f.n.

Taqrizchilar:

Navro'z-Zoda B.N. – BuxDU, Servis iqtisodiyoti
kafedrası professori, i.f.d.

Boboyev A.Ch. – BuxMTI, Menejment kafedrası
dotsent,i.f.n

Dastur Buxoro davlat universitetining 2021 yil 3 iyuldagi 19 sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

KIRISH

5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – iqtisodiyot sohasidagi yo'nalish bo'lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarning iqtisodiy, moliya, marketing, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o'z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

- Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi - xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar; rejalashtirish ishlarini tashkil etish; xo'jalik yurituvchi sub'ektini xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o'rganish; ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish; mehnatni muhofaza qilish me'yor va qoidalariga amal qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish; zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish; fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish; bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash; atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish; favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish; ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo'linmalarini tashkil etish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash; bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi

bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish; zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish; ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish; qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish; tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish; loyihalar samaradorligini baholash; mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ko'rsatkichlari o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash; tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish; axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash; ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish; biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A230101-Iqtisodiy nazariya, 5A230102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 5A230103-Makroiqtisodiyot, 5A232301-Mintaqaviy iqtisodiyot, 5A232401-Iqtisodiy xavfsizlik, 5A230501-Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha), 5A230302-Biznes boshqarish (Master of Business Administration-MBA) magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 3 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: "Industrial iqtisodiyot", "Makroiqtisodiy tahlil, "Global iqtisodiy rivojlanish" va 2 ta umumkasbiy fanlar bo'yicha: "Innovatsion iqtisodiyot", "Investitsion loyihalar tahlili" test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

INDUSTRIAL IQTISODIYOT fani bo'yicha:

Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o'рни. Sanoat-moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i. Mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqaruvchi soha. Sanoat va aholining ish bilan bandligi masalasi. Sanoatning tarixiy rivojlanish yo'llari va asosiy yakunlari. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog'ining shakllanishi. Sanoat tarmog'i tuzilmasi va uni belgilovchi omillar. Sanoatning tarmoqlarga bo'linishi va tarmoq tuzilishi. Sanoat tarmoq tuzilishining

ko'rsatkichlari. Sanoat tarmoq tuzilmasining progressivlik mezonlari. Sanoat tarmoq tuzilishini belgilovchi omillar. Tarmoq tuzilmasi o'zgarishining asosiy tendensiyasi. Sanoatning zamonaviy tarmoq tuzilmasi va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish borasidagi yaqin va uzoq istiqboldagi ustuvor vazifalar. Xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish. Davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish. Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish. Boshqaruv ob'ektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida. Sanoatni va umumiy iqtisodni ilmiy asosda boshqarishni uyushtirish. Sanoatni ilmiy boshqarishning muhim muammolari. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari. Bozor talablariga moslashtirilgan prognozlarni ishlab chiqish. Sanoatda barqarorlik tamoyili. Ishlab chiqarish va mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Boshqarishning ilmiylilik, tejamkorlik, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari. Sanoat boshqaruvining iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy va huquqiy usullari. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi. Boshqarishni takomillashtirishning zamonaviy asosiy yo'nalishlari. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida korxonaning faoliyati. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning umumiy va solishtirma iqtisodiy samaradorligi. Xarajatlarning qoplanish davri - innovatsion yechimlarni, xarajatlar samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o'rni. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari. Asosiy fondlar tuzilmasining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri. Asosiy fondlarni baholash, eskirishi va ta'mirlash. Asosiy fondlar amortizatsiyasi va amortizatsiya ajratmalari. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari. Asosiy fondlarni korxonaning ishlab chiqarish quvvati bilan aloqasi. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish ko'rsatkichlari, ularni hisoblash uslubi. Korxona asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash yo'llari. Aylanma mablag'lar tushunchasi, ularning tarkibi va tuzilmasi. Korxona aylanma mablag'larining asosiy vositalardan farqi. Bozor munosabatlari sharoitida aylanma mablag'larni shakllantirish manbalari. Aylanma mablag'larni korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta'siri. Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish. Korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan talabini hisoblash. Korxonaning qarzga olingan va xususiy aylanma mablag'lari. Korxonaning ishlab chiqarish zahiralari. Zahiralarning turlari va ularni hisoblash uslubi. Zahiralarni boshqarish va moddiy resurslarni tejash. Korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlarini va ularni hisoblash uslubi. Korxonaning aylanma mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. Ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabellik tushunchalari. Mahsulot bahosi va tannarxi. Mahsulot tannarxini rejalashtirish va kalkulyatsiyasi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarning tasnifi. Ishlab chiqarish xarajatlarni aniqlashning xorij tajribasi. Foyda korxona faoliyatining yakuniy natijasi sifatida. Foydaning

ishlab chiqarish rentabelligi bilan aloqasi. Korxonada rentabellikni aniqlash uslubi. Foydani maksimallashtirish. Baho va xarajatlar tarkibini o'zgarishining foydaga ta'sirini tahlil qilish. Ishlab chiqarish rentabelligini oshirish yo'llari. Ishlab chiqarishni tashkil etish strategiyasi konsepsiyasining mohiyati. Maqsadlarni shakllantirish tamoyillari. Tashqi muhitni hisobga olish va uni baholash usullari, korxonaning maqsadini aniqlovchi omillar. Raqobatchi faoliyatini tahlil qilish strategiyasi. Atrof muhitning o'zgarish sur'atlari va uning korxonaga ta'siri. Maqsadlar daraxti. Narxni shakllantirish mezonlari: aniqlik, qisqalik, o'lchovlilik, kelishilganlik. Korxonani rivojlantirishning bazaviy strategiyasi: o'sish strategiyasi (yangi bozorga kirish, bozorning rivojlanishi, geografik ekspansiya va firmalararo hamkorlik, tashqi iqtisodiy faoliyat), barqarorlik strategiyasi (iqtisod, strategik siljish), strategiyasi (boshqarish tizimini qayta ko'rish, moliyaviy qayta qurish, marketingni qayta qurish). Maqsadni amalga oshirish ketma-ketligi: qaror qabul qilish; maqsadni baholash; maqsadning qo'yilishi, atrofni tahlil qilish, resurs bilan ta'minlash, qarorni amalga oshirish, amalga oshirilgan qarorni baholash. Boshqarish zarurligi, mohiyati va ob'ektiv kerakligi. Boshqarish funksiyalari: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik, koordinatsiya, nazorat. Boshqarish tamoyillari. Boshqarish usuli. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishida tashkiliy tuzilma va mazmuni. Tuzilmalar turi: to'g'ri funksional, shtabli. Vakillik mohiyati. Korxona maqsad va vazifalariga erishishida xodimlar motivatsiyasini boshqarish. Korxona raqobatbardoshligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

MAKROIQTISODIY TAHLIL fani bo'yicha:

“Makroiqtisodiy tahlil” fanining predmeti va ob'ekti. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning shakllanishi va ularning turlari. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar axborot ob'ekti sifatida. Makroiqtisodiy tahlilda axborot texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari. Iqtisodiy vaziyatni monitoring qilish. Iqtisodiyotda amal qiluvchi sababli-oqibatli mexanizmlarni tahlil qilish. Moliyaviy oqimlarni tadqiq etish asosida iqtisodiyot sektorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish. Iqtisodiy siyosatni tadqiq etish va yangi iqtisodiy strategiya variantlarini ishlab chiqish (makroiqtisodiy tuzatishlar kiritish dasturlarini ishlab chiqish). O'zbekistonda makroiqtisodiy tahlilning rivojlanishi.

Makroiqtisodiy tahlilning uslub va tamoyillari. Milliy xo'jalik ishlab chiqarishining cheklanganligi. Muqobil xarajatlar. Iqtisodiy tizimlar va ularning modellari. Makroiqtisodiy tahlil usullari. Ekonometrik usul. Regression va korrelyatsion tahlil. Avtokorrelyatsiya. Regressiya tenglamasi. Juft korrelyatsiya. O'zbekistonda makroiqtisodiy tahlilning ilg'or usullaridan foydalanish. Makroiqtisodiy tahlilda milliy hisoblar tizimining roli va ahamiyati. Makroiqtisodiy tahlilning axborot ta'minoti. Milliy hisoblar tizimining tarkibiy tuzilmasi, uni tashkil etuvchi bo'limlari. Milliy hisoblar tizimidagi ko'rsatkichlarning shakllanishi, ularni belgilovchi omillar. Bevosita makroiqtisodiy tahlilda foydalaniluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularning miqdoriy darajasini baholash.

Makroiqtisodiy tahlilning miqdoriy usullari, ekonometrik modellar haqida

tushuncha va ularning turlari, iqtisodiy-matematik modellash tamoillari, makroiqtisodiy tahlilda korrelyatsiya-regressiya modellarini qo'llashning mohiyati, tahlilda foydalaniladigan ekonometrik modellarni taqqoslash shartlari, ularning ishonchliligini baholash. Makroiqtisodiy tahlilda foydalaniladigan ekonometrik modellarni tuzilishining komp'yuter dasturi, yalpi ichki mahsulotni ekonometrik modellar asosida tahlil qilish. Kobb-Duglas funksiyasi asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish.

Iqtisodiyotning real sektori tushunchasi. Real sektorning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish. Real sektor va iqtisodiy o'sish. "Milliy ishlab chiqarish so'f mahsulotlari" tushunchasi. Real agregatlar. Nominal agregatlar. Iste'mol narxlar indeksi. YaIM deflyatori. Sof xorij daromadi, yalpi milliy ixtiyoridagi daromad. Tashqi balans. Xususiy sektorda kapital qo'yilmalarni aniqlovchi omillar. Joriy davr baholari. Inflyatsiyani prognozlash. Tannarx oshishi. Iqtisodiyotning real sektori tahlili, institutsional sektorlar, yuridik shaxslar. Uy xo'jaliklari. Ekonometrik modellar. Makroiqtisodiy agregatlar tushunchasi va makroiqtisodiy tahlil. Makroiqtisodiy prognozlash.

Makroiqtisodiy muvozanat tushunchasi. Makroiqtisodiy muvozanatning klassik modeli. Keynscha makroiqtisodiy model: asosiy qonun va xulosalar. Keynscha modelda iste'mol va jamg'arma funksiyalari. Keynscha modelda investitsiyalar funksiyasi. Keynscha modelda milliy ishlab chiqarishning muvozanat hajmi. Multiplikator samarasi. Tejamkorlik paradoksi. O'zbekistonda makroiqtisodiy tahlilda klassik va keynscha modellarining tadbiiq etilishi.

Pul-kredit siyosatining maqsadi, maqsadli ko'rsatkichlari va asosiy yo'nalishlari. Pul-kredit siyosati vositalari va ularning amal qilish mexanizmi. Pulga bo'lgan talab, pul taklifi va pul agregatlari. Pul-kredit sektori tahlili uslubiyati. O'zbekistonda pul-kredit siyosati va pul-kredit sektorining tarkibi tahlili.

Fiskal siyosat, uning vositalari. Fiskal siyosat vositalarining yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri. Davlat budjeti. Budjet taqchilligi. Davlat budjeti konsepsiyalari. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish yo'llari. Davlat qarzlar, uning turlari va oqibatlari. Davlat sektori tushunchasi, davlat operatsiyalarini o'lchash, davlat moliyasi statistikasi tizimi. Daromadlar va xarajatlar tasnifi. Budjet balansi tushunchasi. Budjet tahlili. Budjet disbalansini hisoblash. Kamomadni moliyalashtirish. Soliq-budjet siyosatining barqarorligi. Daromadlar va xarajatlar tahlili. Davlat sektori operatsiyalarini bashoratlash. Daromadlar va transfertlarni bashoratlash. Davlat xarajatlari va so'f kreditlashni bashoratlash. Moliyalashtirish manbalarini bashoratlash. O'zbekistonda budjet-soliq sektori tahlili.

Aholining asosiy kategoriyalari. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari va uning asosiy turlari. Tabiiy ishsizlik darajasi. Ishsizlik oqibatlari. Ishsizlikni bartaraf etishning davlat siyosati. Inflyatsiya va uning ko'rsatkichlari. Inflyatsiya turlari. Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari va oqibatlari. Inflyatsiya xarajatlari. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida inflyatsiya jarayonlari va aksilinflyatsiya siyosati xususiyatlari. Ishsizlik darajasi va inflyatsiya sur'ati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Inflyatsiyaga qarshi siyosat va inflatsion targetlashning ahamiyati.

Tovar va pul bozorlarining o‘zaro bog‘liqligi. IS-LM modeli va uning mohiyati. IS egri chizig‘i va uning yasalishi. LM egri chizig‘i va uning yasalishi. Tovar va pul bozori muvozanati.

To‘lov balansining mohiyati. To‘lov balansini tuzish metodologiyasi. To‘lov balansining tarkibi. To‘lov balansining defitsiti va uni qoplash usullari. Valyuta kursi va unga ta’sir etuvchi omillar. Valyuta siyosati. O‘zbekistonda to‘lov balansining makroiqtisodiy tahlili. Mamlakatning investitsion pozitsiyasi.

Ichki va tashqi muvozanat: iqtisodiy siyosat muammolari. Pul -kredit va budjet-soliq siyosatining to‘lov balansiga ta’siri. Qayd etilgan almashuv kursi sharoitida ichki va tashqi muvozanat modeli. Rollarni taqsimlash qoidasi. Suzuvchi almashuv kursi sharoitida iqtisodiy siyosat. Ichki va tashqi muvozanat modelining amaliy qo‘llanilishi. Samarali iqtisodiy siyosatni yuritishni qiyinlashtiruvchi omillar.

Tarmoqlararo balans haqida tushuncha, uning tarkibiy tuzilishi. Tarmoqlararo balansdagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. Tarmoqlararo balansdagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning miqdoriy bog‘liqligi. Tarmoqlararo balansdagi matematik bog‘liqliklar. Dinamik tarmoqlararo balans mehnat va fondlar harajatlarining iqtisodiy tahlili. Tarmoqlararo balansdagi “ishlab chiqarish – harajat” modeli tahlili.

Innovatsiya haqida tushuncha. Innovatsion faoliyat iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli, uning tarkibiy tuzilishi, Innovatsion iqtisodiyot bo‘yicha xorij tajribasi. O‘zbekiston ilmiy tadqiqot faoliyatining tashkiliy tuzilmasi va ularni moliyalashtirish tizimi tahlili.

Global iqtisodiy rivojlanish fani bo‘yicha:

“Global iqtisodiy rivojlanish” fanining predmeti va uslublari. Jahon iqtisodiyotini globallasuvi ob’ekti va sub’ekti. Jahon iqtisodiyotini globallasuvi mohiyati, kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari va darajalari. Jahon iqtisodiyotni globallasuvining vujudga kelishi va rivojlanishini shart-sharoitlari: texnologik taraqqiyot; kapitalning konsentrsiyalashuvi va markazlashuvi; xalqaro biznesning integratsiyalashuvi; jahon iqtisodiyotining erkinlashuvi; xalqaro moliya institutlari faoliyat doirasining kengayishi; global muammolar tomonidan xavfning kuchayishi; milliy va xalqaro miqyosda siyosiy tizimlarning o‘zgarishi. Globallasuv tushunchasining keng va tor ma’nodagi ta’rifi. Globallasuv tushunchalarining rivojlanish evolyutsiyasi. Globallasuv jarayoni va uning chuqurlashuv bosqichlari: - integratsiyalashuv; – transmilliylashuv; – globallasuv. Globalashuv turlari: siyosiy globallasuv; iqtisodiy globallasuv; moliyaviy globallasuv. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining namoyon bo‘lish shakllari. Globallasuv jarayonining iqtisodiy, siyosiy, texnik, erkinlashuv omillari. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining ustuvor yo‘nalishlari. Jahon iqtisodiyoti globallasuvi darajalari: megadaraja; makrodaraja; mezodaraja; mikrodaraja. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi ko‘rsatkichlari. “Global iqtisodiy rivojlanish” fanining umumiqtisodiy va mutaxassislik fanlari bilan bog‘liqligi, fanning vazifalari.

Globallashuvga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi. Globallashuv nazariyalarining rivojlanish bosqichlari: 1950-1990 yillar (R.Robertson, M.Uoters, G.Ternborn, A.Zinovev, I.Vallerstayn, D.Meyer, N.Luman). 1990-2000 yillar (I.Vallerstayn, G.Ternbon, M.Archer, R.Robertson, M.Fezerstoun, A.Appadurai, B.Terner, A.Zinovev, N.S.Mironenko). 2000 yillardan hozirga qadar (M.Kastels, L.G.Grinin, R.Roberston). Globallashuv jarayonining rivojlanishi. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi to'g'risidagi ilmiy konsepsiyalar asosiy yo'nalishlari: giperglobal; skeptik va transformatsion. Giperglobal ilmiy yo'nalish vakillari hisoblangan K.Oman, F.Fukuyama va R.Rayxning iqtisodiy qarashlari. Skeptik ilmiy maktab vakillari S.Xantington, P.Xirst, G.Tompson, S.Krasnerlarning iqtisodiy qarashlari. Transformatsion ilmiy maktab vakillari Dj.Rozenau, D.Xeld, A.Mak-Grularning ilmiy qarashlari. Rim klubi va globallashuv nazariyalarining rivojlanishi. Global iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari: "jahon tizimlari" nazariyasi (I.Vallerstayn); "umumjahon madaniyati" nazariyasi (R.Robertson); "umumjahon boshqaruvi" nazariyasi; "global kapitalizm" nazariyasi. "Vashington konsensus" yoki AQSh iqtisodchisi Dj.Vilyamson tomonidan ishlab chiqilgan "Jahon savdosini isloh etishning 10 tavsiyasi": 1. Budget kamomadini minimallashtirish; 2. Korxonalarga beriladigan subsidiyalarni minimallashtirish; 3. Soliq bazasi keng, soliq stavkasi esa past bo'lishi zarurligi; 4. Foiz stavkalari ichki moliya bozorlari tomonidan belgilanishi zarurligi; 5. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi almashuv kursi eksportni rag'batlantirishi zarurligi; 6. Tashqi savdo tariflari minimal bo'lishi zarurligi; 7. Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish siyosati qabul qilinishi zarurligi; 8. Xususiy lashtirish har tomonlama rag'batlantirilishi zarurligi; 9. Davlat tomonidan tartibga solishni minimallashtirish; 10. Xususiy mulk huquqi kafolatlanishi va kuchaytirilishi zarurligi. Dj.Yu.Stiglitsning iqtisodiy qarashlari. "Transformatsion yo'nalish"i tarafdorlarining ilmiy qarashlari. XX asr boshlarida Jahon iqtisodiyoti globallashuvi nazariyalarining transformatsiyalashuvi va xususiyatlari.

Jahon iqtisodiyotni globallashuvini harakatlantiruvchi kuchlari: kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi, xo'jalik hayoti transnatsionallashuvi – yirik transmilliy kompaniyalar va moliya guruhlarining rivojlanishi, jahon va milliy darajadagi bozor raqobati, fan texnika taraqqiyoti, texnologik innovatsiya taraqqiyoti, xo'jalik hayotining erkinlashuvi, tovar, xizmat va kapital bozorlarini tartibga solishning qisqarishi. Jahon xo'jaligi erkinlashuvi jarayonining kuchayishi. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy mexanizmlari: 1. Jahon savdosida raqobatning kuchayishi 2. Ko'p millatli ishlab chiqarishning shakllanishi 3. Xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar: mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning keskin kuchayishi; milliy iqtisodiyotlar iqtisodiy ochiqligining jadal sur'atlar bilan oshishi; xalqaro savdo va kapitalning mamlakatlararo harakati asosida jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotga ta'sirining intensivlashuvi. Xalqaro mehnat taqsimoti yangi sifatining shakllanishi; Jahon moliya bozorining milliy segmentlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi va global moliya bozori shakllanishi; infomatsion va telekommunikatsion taraqqiyot;

transmilliy korporatsiyalar faoliyatining global kengayishi; rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlaktlarining xalqaro savdo, xalqaro kredit, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlariga jalb etilishi; jahon iqtisodiyoti sub'ektlari tarkibining keskin murakkablashuvi; jahon iqtisodiyotiga yangi rivojlanib borayotgan yirik shaharlar (alfa shahar) ta'siri kuchayishi (Nyu-York, London, Tokio). Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining belgilari: xalqaro mehnat taqsimotidagi sifat o'zgarishlari; TMK kabi jahon iqtisodiyoti sub'ektlari miqyosi va ta'sir yo'nalishining o'sishi; xalqaro va milliy darajada iqtisodiyotni tartibga solish tizimining o'zgarishi; xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tizmi shakllanishi va bajaradigan funksiyalarining o'zgarishi; xalqaro iqtisodiy aloqalar jahon xo'jaligi harakat qilishining muhim shakliga aylanishi.

Jahon iqtisodiyoti globallashtiruv belgilari. TMKlarni jahon iqtisodiyotida yetakchi rol o'ynashi. Jahon xo'jaligi munosabatlarining ichki iqtisodiy munosabatlarga nisbatan yetakchiligi (ustuvorligi). Global axborot-texnologik taraqqiyotni chuqurlashuvi. Ilmiy-texnika taraqqiyotini ishlab chiqarishni integratsiyalashuvini hamma tomonlariga universal, keng qamrovli ta'siri. Standartlarni uyg'unlashuvi (texnologik, ekologik, statistik, buxgalter, moliyaviy va boshqalar). Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi qamrovini turli shakllarda jahon miqyosida kengayishi va intensivlashuvi. Kapitalning integratsiyalashuvi shakl va mexanizmlarining global miqyosda kengayishi. Xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining jahon iqtisodiyotini global tartibga solish rolining vujudga kelishi (Umumjahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va boshqalar). Jahonning hamma muhim iqtisodiy mintaqalarining hududiy integratsiya bilan qamrab olinishi. Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning jadal sura'rlarda rivojlanishi. Globallashtiruv jarayonining rivojlanish yo'nalishlari: bozorlar va tovarlar globallashtiruv.

Global muammolar. Global muammolarning belgilari. Global muammolarning guruhlanishi. Siyosiy global muammolar (tinchlikni saqlash, qurolsizlanish va konversiya, mahalliy urushlar va nizolar, xalqaro terrorizm, yopiq mamlakatlar). Iqtisodiy global muammolar (transmilliy kapital, iqtisodiy urushlar va nizolar, rivojlanayotgan mamlakatlar qoloqligining kuchayishi, demografik global muammolar (rivojlanayotgan mamlakatlardagi demografik portlashlar, aholi ortiqchaligi, taraqqiy etgan mamlakatlarda aholi soni qisqarishi, aholi qarishi, migratsiya). Shimol-Janub, xalqaro qarzdorlik, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, energetika muammosiva boshqalar). Ijtimoiy global muammolar (aholi daromadlaridagi tabaqalanishning kuchayishi, ishsizlik va qashshoqlik, to'yib ovqatlanmaslik, kasallik va narkomaniyaga qarshi kurash, megopolislar, inson salohiyatini rivojlantirish muammosi, oziq-ovqat, xavfsizlik, demografik va boshqalar). Ekologik muammolar (global ifloslanish, radioaktiv ifloslanish, kislota yomg'irlari, tuproq eroziyasi, resurslarni cheklanganligi, iqlimning isishi, ozon qatlami yemirilishi, ekologiya va barqaror rivojlanish, inson xavfsizligini ta'minlash muammosi, jahon okeani muammosi va boshqalar). Shimol-Janub muammosi. Kambag'allik muammosi. Oziq-ovqat muammosi. Demografik muammo. Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining siklliligi tarixi va uning rivojlanish qonuniyatlari. 1-sikl – XII asr o'rtalari-XV asr oxiri. 2-sikl – XVI asr o'rtalari-XVII asr ikkinchi yarmi. 3-sikl – XVIII asr. 4-sikl – 1840-1920 yillar. 5-sikl – XX asr 60-

yillar oxiri-hozirga qadar. Xalqaro savdoning ustun darajada rivojlanishi. Globalizatsiyaning siklik rivojlanish qonuniyatlari: xalqaro savdoning ustun darajada rivojlanishi; inflyatsiya va oltin narxining siklik o'zgarishi; foyda normasini pasayishi va narxning baravarlashuvi. Jahon iqtisodiyoti globallasuvi bosqichlari: 1. 1980-1920 yillar – xom ashyo manbalarini egallab olish. 2. 1920-1970 yillar – mahsulot sotish bozorlarini egallash. 3. 1970 yildan hozirgi kunga qadar – investitsiya tarkibining optimallasuvi, global yoki mintaqaviy xalqaro iqtisodiy integratsiya afzalliklaridan foydalanish, global raqobatbardoshlikni ta'minlash, saqlash va oshirish asosida jahonni tez o'sib borayotgan bozorlarida o'rnini mustahkamlash. Jahon iqtisodiyotini globallasuvini qarama-qarshiliklari: mamlakatlar va mamlakatlar guruhi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, mamlakatlar va tegishli moliya institutlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, ayrim mamlakatlar bilan TMK va jahon moliya markazlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, yirik TMK, TMB va xalqaro moliya markazlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar.

Global iqtisodiyot shakllanishida xalqaro savdoning o'rnini. Global bozorlar shakllanishi va ularning xususiyatlari. Globallasuv sharoitida erkin savdo va proteksionizm savdo siyosatlarini o'rtasidagi nisbat. Jahon iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida tashqi savdoni tartibga solishni tarif va notarif usullari o'rtasidagi nisbat. Xalqaro savdoning geografik va tovar tarkibi hamda ularni diversifikatsiyalash yo'nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining xalqaro savdo miqyosi, tarkibi va yo'nalishlariga ta'siri. Xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarish xususiyatlari. Xalqaro savdoda rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'rnini. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdoning ahamiyati. Xalqaro savdo rivojlanishida xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning roli. Umumjahon savdo tashkilotining jahon iqtisodiyoti globallasuvi va tashqi savdo erkinlashuvidagi faoliyati. Mintaqaviy iqtisodiy integratsion birlashmalar doirasida xalqaro savdoni erkinlashtirish jarayonlari. Umumjahon savdo tashkiloti va O'zbekiston. O'zbekistonning Xalqaro savdo tashkilotiga kirishining afzalliklari va yo'qotishlari.

